
“AYOLLAR DAFTARI”GA KIRITILGAN AYOLLAR BANDLIGI TA’MINLANMOQDA

Keyingi yillarda Toshloq tumanida ayollar bandligini ta’minlash, kasb-hunarga o’rgatish, kasanachilikni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, “Ayollar daftari”dagi ishsiz ayollarni bandligini ta’minlash borasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Xususan, tumandagi "Mehnatobod" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Xatichaxon Yuldasheva ham ishsizligi tufayli "Ayollar daftari"ga olinib, bandligi ta’minlanishi belgilangan edi.

Shu sababdan mahalla hokim yordamchisi tavsiyasiga ko’ra, subsidiya asosida unga tikuv mashinasi ajratildi. Hozirda o’z xonadonida tikuvchilik faoliyati yo’lga qo’yib, daromad topmoqda.

2023-08-02 16:42:21